Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 33
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

SPORT INVENTARLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARNING INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ixtiyor Baxtiyorovich Xamraqulov*
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Farg'ona davlat texnika universiteti doktoranti
✉ ixtiyor121@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sport inventarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning innovatsion va investitsion faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Sport inventarlari sanoatining texnologik rivojlanish xususiyatlari, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi, innovatsion salohiyat, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, mahsulot sifati va xalqaro standartlarga muvofiqlik masalalari o'zaro bog'liq holda tahlil qilingan. Innovatsion-investitsion faoliyatni moliyaviy, innovatsion, texnologik, tashkiliy, bozor va standartlashtirish mezonlari asosida kompleks baholashning ilmiy-uslubiy imkoniyatlari asoslangan. Entropiya va iyerarxiyalar tahlili usullarini uyg'unlashtirish orqali integral baholash yondashuvining afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy klaster mexanizmi, "RISK-SPORT 6D" xavf-xatarlarni boshqarish tizimi, "RIBOM-Sport" raqobatbardoshlik modeli hamda mahsulot sifatini uzluksiz takomillashtirishga qaratilgan "jonli laboratoriya" konsepsiyasining iqtisodiy mazmuni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari sport inventarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda investitsion qarorlarni ilmiy asoslash, innovatsion rivojlanish ustuvorliklarini belgilash va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

sport inventarlari, innovatsion faoliyat, investitsiya samaradorligi, integral baholash, entropiya, AHP, iqtisodiy-ijtimoiy klaster, xavf-xatarlarni boshqarish, RISK-SPORT 6D, RIBOM-Sport, jonli laboratoriya, raqobatbardoshlik.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi tobora ko'proq innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish hamda mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlariga bog'liq bo'lib bormoqda. Ayniqsa, sport inventarlari ishlab chiqarish sanoatida mazkur omillarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki ushbu tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotlar nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki texnik xavfsizlik, foydalanish qulayligi, chidamlilik, ergonomika va xalqaro standartlarga muvofiqlik talablariga ham javob berishi zarur.

Sport inventarlari ishlab chiqarish faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, yangi mahsulotni ishlab chiqish jarayoni konstruktorlik ishlanmalari, materiallarni tanlash, tajriba namunalarini tayyorlash, laboratoriya sinovlarini o'tkazish, sertifikatlash, ishlab chiqarish texnologiyasini moslashtirish va bozorga chiqarish kabi o'zaro bog'liq bosqichlardan tashkil topadi. Ushbu bosqichlarning har biri muayyan moliyaviy resurslarni talab etadi va alohida iqtisodiy xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli sport inventarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning rivojlanishini faqat investitsiya hajmi yoki ishlab chiqarish quvvatining ortishi orqali baholash yetarli emas.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda investitsiyalarning samaradorligi ularning innovatsion natijalarga aylanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Korxonaga yangi texnologik uskunalar xarid qilinishi ishlab chiqarish hajmini oshirishi mumkin, biroq bu holat mahsulot sifati, mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish

samaradorligi va bozordagi raqobat ustunligining avtomatik ravishda yaxshilanishini anglatmaydi. Investitsiya resurslari tegishli innovatsion, tashkiliy va boshqaruv imkoniyatlari bilan uyg‘unlashgandagina uzoq muddatli iqtisodiy natijadorlikni ta’minlashi mumkin.

O‘zbekistonda sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirish va investitsion muhitni yaxshilash iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Mamlakatda sport infratuzilmasining kengayishi, ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar hamda sport mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi mahalliy sport inventarlari sanoati uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantirmoqda. Biroq mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish korxonalarning innovatsion-investitsion salohiyatini to‘g‘ri baholash va rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy asoslashni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan sport inventarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning innovatsion va investitsion faoliyatini yagona metodologik tizimda baholash, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni uyg‘unlashtirish, xavf-xatarlarni boshqarish hamda mahsulot sifatini uzluksiz takomillashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sport inventarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning innovatsion va investitsion faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish, uning tarkibiy omillarini aniqlash hamda olingan natijalar asosida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-amaliy yo‘nalishlarini asoslashdan iborat.

Innovatsion va investitsion faoliyat iqtisodiy mazmuniga ko‘ra bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, ularning natijadorligini belgilovchi omillar o‘zaro farqlanadi. Investitsion faoliyat korxonaning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, innovatsion faoliyat mavjud resurslar asosida yangi mahsulot, texnologiya, xizmat yoki boshqaruv usullarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki faoliyatning o‘zaro uyg‘unligi sanoat korxonalarida barqaror raqobat ustunligini yaratishning muhim sharti hisoblanadi. Innovatsion salohiyat yetarli bo‘lmagan korxonada katta hajmdagi investitsiyalar kutilgan natijani bermasligi mumkin. Xuddi shuningdek, istiqbolli innovatsion g‘oyalar yetarli investitsion ta’minot mavjud bo‘lmaganda tijoratlashtirish bosqichiga yetib bormaydi.

Innovatsion rivojlanish nazariyasida Y. Shumpeter tomonidan ilgari surilgan yangi kombinatsiyalar konsepsiyasi ishlab chiqarish omillaridan foydalanishning yangi shakllarini iqtisodiy taraqqiyot manbai sifatida talqin etadi. P. Drukerning innovatsion tadbirkorlikka oid qarashlari esa innovatsiyani tasodifiy jarayon emas, balki tizimli boshqarilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy faoliyat sifatida izohlaydi. M. Porterning raqobat ustunligi nazariyasida korxonaning bozordagi muvaffaqiyati mahsulot tannarxi, differensiatsiya, ishlab chiqarish samaradorligi va qiymat yaratish zanjirining tashkil etilishiga bog‘liq holda tushuntiriladi.

Mazkur nazariy yondashuvlar sport inventarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini tadqiq etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ushbu tarmoqning mahsulot xavfsizligi, sinov xarajatlari, sertifikatlash talablari va real foydalanish sharoitidagi sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq xususiyatlari umumiy sanoat korxonalariga nisbatan qo‘shimcha baholash mezonlarini shakllantirishni talab etadi. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, statistik kuzatish, ko‘p mezonli baholash, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, investitsion tahlil hamda xavf-xatarlarni ehtimollik asosida baholash usullaridan foydalanilgan. Ushbu usullarni o‘zaro uyg‘unlashtirish korxonalarning innovatsion-investitsion faoliyatini alohida ko‘rsatkichlar yig‘indisi sifatida emas, balki yagona iqtisodiy-boshqaruv tizimi sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti sifatida Andijon viloyati Baliqchi tumanida faoliyat yuritayotgan “LB SPORT” MChJ va “MAGNA SPORT” MChJ korxonalarining innovatsion hamda investitsion faoliyati tanlangan. Mazkur korxonalar misolida ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik yangilanish, investitsion imkoniyatlar, mahsulot sifati va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilingan.

Sport inventarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning innovatsion-investitsion faoliyatini baholashda mavjud yondashuvlarning asosiy cheklovlaridan biri moliyaviy ko‘rsatkichlarga nisbatan ustuvor ahamiyat berilishidir. Amaliyotda rentabellik, sof foyda, investitsiyalar qaytimi va ishlab chiqarish hajmi kabi

ko‘rsatkichlar keng qo‘llaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar korxonaning joriy iqtisodiy holatini ifodalasa-da, uning innovatsion rivojlanish salohiyati va kelajakdagi raqobat imkoniyatlarini to‘liq tavsiflamaydi.

Masalan, ishlab chiqarish hajmi yuqori bo‘lgan korxona eskirgan texnologiyalardan foydalanishi, mahsulot sifatini nazorat qilish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lishi yoki xalqaro standartlarga muvofiqlik bo‘yicha cheklovlarga duch kelishi mumkin. Bunday sharoitda korxonaning joriy moliyaviy natijalari ijobiy bo‘lishiga qaramay, uning uzoq muddatli raqobatbardoshligi zaiflashishi ehtimoli mavjud. Shu sababli tadqiqotda innovatsion-investitsion faoliyat samaradorligini moliyaviy, innovatsion, texnologik, tashkiliy, bozor va standartlashtirish mezonlari asosida kompleks baholash yondashuvi takomillashtirilgan. Moliyaviy mezon korxonaning iqtisodiy natijadorligini, innovatsion mezon yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish imkoniyatlarini, texnologik mezon ishlab chiqarish jarayonlarining zamonaviylik darajasini ifodalaydi.

Tashkiliy mezon boshqaruv tizimining samaradorligi va resurslarni muvofiqlashtirish imkoniyatlarini baholaydi. Bozor mezoni korxonaning raqobat muhiti, iste’molchilar talabi va sotish imkoniyatlariga moslashuvchanligini tavsiflaydi. Standartlashtirish mezoni esa mahsulotlarning xavfsizlik, sifat va sertifikatlash talablariga muvofiqligini aks ettiradi.